

**SAHNA – HAYOT KO’ZGUSI**  
(27-mart – Xalqaro teatr kuni)



**SAHNA – HAYOT KO’ZGUSI**  
(27-mart – Xalqaro teatr kuni)



Teatr miloddan avvalgi V asrda Yunonistonda paydo bo’lgan. Uning sof tomosha shaklida ko’rinishi dastlab qadimgi Sharqda yuz bergan. Hindiston, Markaziy Osiyo, Xitoy, Indoneziya, Yaponiya, Koreya, Birma, Vyetnamda teatr tomoshalarining xilma-xil shakllari yaratilgan.

Teatr san’atining turlari ko’p. Bular – drama teatri, opera, balet, musiqali drama, musiqali komediya, operetta, yosh tomoshabinlar teatri, qo’g’irchoq teatri, radio teatr, televizion teatr, estrada teatri, maydon teatridir. Teatr asarlarining asosiy janrlari: drama, tragediya, komediya. 1576-yilda aktyor Jeyms Berbij sahna namoyishlari uchun maxsus birinchi binoni qurgan. U

uyushtirilgan. An’anaviy teatr va boshqa san’at tomoshalari, ayniqsa, Mirzo Ulug’bek davrida Movarounnahrda, Husayn Boyqaro davrida Xurosunda taraqqiy topdi.

Teatr har bir davrda, hayotiy saboqlar beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma’naviyati yuksalishida ham uning o’rni bo’lakcha. Ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy «Teatr – bu ibratxonadir» deb bejiz ta’kidlamagan. Darhaqiqat, teatr ibrat va ma’naviyat maskani. Yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik tuyg’usini shakkantirish hamda bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ham uning salmoqli roli bor.

Ya’ni, u insonga hayotiy saboq beradi. Binobarin, joylarda

balki kattalarning ham qalb tubiga yetib boradi. Behbudiyning fikricha, ma’rifat uchun faqat maktab kifoya qilmaydi. Millat uchun oyna kerak, toki unda o’z qabohatini ham, malohatini ham ko’ra olsin. Mana shu haqiqat uni teatr tashkil etish, ular uchun asarlar yaratishga undagan. O’zbek dramaturgiyasining ilk namunalardan biri sanalgan «Padarkush» asari shu tufayli yuzaga kelgan.

uddin Naqshband, Hakim at-Termizi, Imam al-Buxoriy kabi allomalar hayotini yorituvchi sahna asarları vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma’naviyatini boyitdi, tarixga nisbatan qarashlarini o’zgartirdi.

Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarları ma’naviy va madaniy hayotimizda katta voqeа bo’ldi. O’zbekistonda O’tkazilgan «Sharq va G’arb» teatr san’ati festivali, «Humo» va shahar uchilar teatrlari festivali

Teatr miloddan avvalgi V asrda Yunonistonda paydo bo’lgan. Uning sof tomosha shaklida ko’rinishi dastlab qadimgi Sharqda yuz bergan. Hindiston, Markaziy Osiyo, Xitoy, Indoneziya, Yaponiya, Koreya, Birma, Vyetnamda teatr tomoshalarining xilma-xil shakllari yaratilgan.

Teatr san’atining turlari ko’p. Bular – drama teatri, opera, balet, musiqali drama, musiqali komediya, operetta, yosh tomoshabinlar teatri, qo’g’irchoq teatri, radio teatr, televizion teatr, estrada teatri, maydon teatridir. Teatr asarlarining asosiy janrlari: drama, tragediya, komediya. 1576-yilda aktyor Jeyms Berbij sahna namoyishlari uchun maxsus birinchi binoni qurgan. U shunchaki «teatr» deb nomlangan. Ko’p o’tmay boshqa teatrlar qurilgan, ular orasida «Globus» teatri ham bo’lib, u yerda Shekspirning ko’plab pyesalari sahnalashtirilgan.

Tomoshabinlar sahnaning oldi yoki atrofidagi chuqurda tik turgan yoki kabinetlarda o’tirgan. Bizning zamonaviy teatrimiz o’sha dastlabki ingliz teatrlaridan kelib chiqqan. Ayniqsa, Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. G’arbiy Yevropada teatr san’atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar, jonglyorlar ijodida, Rossiyada skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan.

Uyg’onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional turning shakllanishiga zamin yaratdi. XVI asrdan opera, XVIII asr o’talaridan balet, XIX asr o’talaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bog’liq.

XVIII asrda ma'rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Aynan o'sha davrda u g'oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi. Amir Temur davlati davrida teatr san'atida keskin yuksalish ro'y berdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixolarning ma'lumotlaricha, bu davrda poytaxt – Samarqandda va boshqa nufuzli shaharlarda teatrlashgan tomoshalar uyushtirilgan. An'anaviy teatr va boshqa san'at tomoshalari, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek davrida Movarounnahrda, Husayn Boyqaro davrida Xurosonda taraqqiy topdi.

Teatr har bir davrda, hayotiy saboqlar beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma'naviyati yuksalishida ham uning o'rni bo'lakcha. Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy «Teatr – bu ibratxonadir» deb bejiz ta'kidlamagan. Darhaqiqat, teatr ibrat va ma'naviyat maskani. Yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ham uning salmoqli roli bor.

Ya'ni, u insonga hayotiy saboq beradi. Binobarin, joylarda yoshlarni teatrlarga ko'proq jalb qilish, zamon qahramoni obrazi aks etgan spektakllarni ko'proq yaratish, qolaversa, huquqbazarlik va jinoyatchilikning ayanchli oqibatlarini kelajagimiz sohiblariga sahna asarlari orqali yetkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Negaki, hamma yoshlar ham qonunchilik normalarini o'qish yoki eshitish bilan qaysidir noqonuniy xatti-harakatning mohiyatini teran anglamasligi mumkin.

Ammo real voqealarga asoslangan spektakllarda ilgari surilgan g'oyalari nafaqat yoshlar, balki kattalarning ham qalb tubiga yetib boradi. Behbudiyning fikricha, ma'rifat uchun faqat maktab kifoya qilmaydi. Millat uchun oyna kerak, toki unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu haqiqat uni teatr tashkil etish, ular uchun asarlar yaratishga undagan. O'zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sanalgan «Padarkush» asari shu tufayli yuzaga kelgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, teatrimiz hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli milliy merosga tayanib ijod qilish, milliy qadriyatlar, an'analarni tiklashga intilish jiddiy tus oldi. Bu davrda o'zbek teatrida ilg'or tendensiylari, ijodiy izlanishlar ko'zga tashlanadi. Masalan, teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz – allomalar, shoirlar, davlat arboblari, lashkarboshilarining hayoti va taraqqiyot uchun kurashini yorituvchi o'nlab sahna asarlari yaratildi. Sahnalarda sho'rolar davrida hatto tilga olish man etilgan Bahouddin Naqshband, Hakim at-Termizi, Imom al-Buxoriy kabi allomalar hayotini yorituvchi sahna asarlari vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma'naviyatini boyitdi, tarixga nisbatan qarashlarni o'zgartirdi.

Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma'naviy va madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. O'zbekistonda o'tkazilgan «Sharq va G'arb» teatr san'ati festivali, «Humo» xalqaro yoshlar teatrlari festivali, «Navro'z», «Andijon bahori» respublika teatr festivallari,

qo‘g‘irchoq teatrлари фестивалари театр сан‘атининг янги ижтимоий шароитда ривожланышидаги мумим рол о‘ynamоqда. О‘zbek театри жамоалари дунёдаги бир qator мамлакатлarda ijодиy safarlarda bo‘lib, o‘zbek театр сан‘ати yutuqlarini namoyish etishmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, театр har bir insonga hayotiy saboqlar beruvchi jonli vositadir. Teatrdan madaniy hordiq chiqarish uchungina emas, undagi namoyish etiladigan spektakllarni tomosha qilib, inson jamiyatdagi voqeliklarni, kechinmalarni teran anglashi mumkin. Shiddat bilan taraqqiy etayotgan texnika va innovatsiyalar zamonida istalgan kino, serial yoki spektaklni ijtimoiy tarmoqlar orqali topib tomosha qilish mumkindir. Ammo teatrga borib, sahna asari ruhini, unda mujassam g‘oyalar nafasini his qilib jonli tomosha qilishning zavqi ham, ma’naviy foydasi ham o‘zgacha. Zero, театр – tarbiya maskani, ma’naviyat o‘chog‘idir.

## TEATR HAQIDA QIZIQARLI FAKTLAR

Teatrlarning ramzi hisoblangan maxsus niqob shaxsni yashirish uchun mo‘ljallangan. Qadim zamonlardan beri niqoblar театр ан‘аналаридаги мумим рол о‘ynagan. Ulardan foydalanish hozirgi kungacha davom etdi.

1961-yilda UNESCO qoshidagi Xalqaro театр institutining IX Kongressi delegatlari tashabbusi bilan 27-mart – Xalqaro театр kuni deb e’lon qilingan.

Avstriya дунёдаги eng kichik teatri bilan mashhur. U oddiygina «Kremli hovlisi» deb ataladi. Uning sahna o‘lchamlari 1,3 kvadrat metrga teng. Spektaklga faqat sakkiz kishi tashrif buyurishi mumkin, xolos. Aytish joizki, у Guinnessning rekordlar kitobiga kiritilgan. Dunyodagi eng katta театр esa «Suvdagи marvarid» deb nomlanadi. U 2007-yili Pekinda qurilgan.

Abror POYONOV,  
o‘z muxbirimiz.

**13/2025-мавзу**

## **САҲНА – ҲАЁТ КЎЗГУСИ**

(27 март – Халқаро театр куни)

Театр милоддан аввалги В асрда Юнонистонда пайдо бўлган. Унинг соф томоша шаклида қўриниши дастлаб қадимги Шарқда юз берган. Ҳиндистон, Марказий Осиё, Хитой, Индонезия, Япония, Корея, Бирма, Ветнамда театр томошаларининг хилма-хил шакллари яратилган.

Театр санъатининг турлари кўп. Булар – драма театри, опера, балет, мусиқали драма, мусиқали комедия, оперетта, ёш томошабинлар театри, қўғирчоқ театри, радио театр, телевизион театр, эстрада театри, майдон театридир. Театр асарларининг асосий жанрлари: драма, трагедия, комедия. 1576 йилда актёр Жеймс Бербиж саҳна намойишлари учун маҳсус биринчи бинони қурган. У шунчаки «театр» деб номланган. Кўп ўтмай бошқа театрлар курилган, улар орасида «Глобус» театри ҳам бўлиб, у ерда Шекспирнинг кўплаб пьесалари саҳналаштирилган.

Томошабинлар саҳнанинг олди ёки атрофидаги чуқурда тик турган ёки кабиналарда ўтирган. Бизнинг замонавий театримиз ўша дастлабки инглиз театрларидан келиб чиқсан. Айниқса, Римда театрнинг янги шакл ва турлари яратилди. Ғарбий Европада театр санъатининг дастлабки намуналари сайёр актёрлар, жонглёрлар ижодида, Россияда скоморохлар фаолиятида юзага келган.

Уйғониш даврида вужудга келган драма янги шаклдаги профессионал турнинг шаклланишига замин яратди. XVI асрдан опера, XVII аср ўрталаридан балет, XIX аср ўрталаридан оперетта мустақил театр тури сифатида ривожлана бошлади. Театрнинг кейинги тараққиёти классицизмнинг кенг ёйилиши билан боғлиқ.

XVIII асрда маърифатчилик оқимидаги театр тараққий этди. Айнан ўша даврда у ғоявий ва бадиий курашлар майдонига айланди. Амир Темур давлати даврида театр санъатида кескин юксалиш рўй берди. Шарафиддин Али Яздий, Ибн Арабшоҳ, Клавихоларнинг маълумотларича, бу даврда пойтахт – Самарқандда ва бошқа нуфузли шаҳарларда театрлашган томошалар уюстирилган. Анъанавий театр ва бошқа санъат томошалари, айниқса, Мирзо Улуғбек даврида Мовароуннаҳрда, Ҳусайн Бойқаро даврида Хурсонда тараққий топди.

Театр ҳар бир даврда, ҳаётини сабоқлар берувчи жонли восита ҳисобланган. Инсон маънавияти юксалишида ҳам унинг ўрни бўлакча. Маърифатпарвар бобомиз Маҳмудхўжа Беҳбудий «Театр – бу

ибратхонадир» деб бежиз таъкидламаган. Дарҳақиқат, театр ибрат ва маънавият маскани. Ёшларимиз маънавиятини юксалтириш, уларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ҳамда бўш вақтларини мазмунли ташкил этишда ҳам унинг салмоқли роли бор.

Яъни, у инсонга ҳаётий сабоқ беради. Бинобарин, жойларда ёшларни театрларга кўпроқ жалб қилиш, замон қаҳрамони образи акс этган спектаклларни кўпроқ яратиш, қолаверса, ҳукуқбузарлик ва жиноятчиликнинг аянчли оқибатларини келажагимиз соҳибларига саҳна асарлари орқали етказишга жиддий эътибор қаратилмоқда. Негаки, ҳамма ёшлар ҳам қонунчилик нормаларини ўқиш ёки эшитиш билан қайсиdir ноқонуний хатти-ҳаракатнинг моҳиятини теран англамаслиги мумкин.

Аммо реал воқеаларга асосланган спектаклларда илгари сурилган ғоялар нафақат ёшлар, балки катталарнинг ҳам қалб тубига етиб боради. Беҳбудийнинг фикрича, маърифат учун фақат мактаб қифоя қилмайди. Миллат учун ойна керак, токи унда ўз қабоҳатини ҳам, малоҳатини ҳам кўра олсин. Мана шу ҳақиқат уни театр ташкил этиш, улар учун асарлар яратишга унданаган. Ўзбек драматургиясининг ilk намуналаридан бири саналган «Падаркуш» асари шу туфайли юзага келган.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, театrimiz ҳаётида ҳам янги давр бошланди. Истиқлол туфайли миллий меросга таяниб ижод қилиш, миллий қадриятлар, анъаналарни тиклашга интилиш жиддий тус олди. Бу даврда ўзбек театрида илғор тенденциялар, ижодий изланишлар кўзга ташланади. Масалан, театрлар репертуарида тарихий мавзунинг салмоғи ошди. Буюк аждодларимиз – алломалар, шоирлар, давлат арбоблари, лашкарбошиларнинг ҳаёти ва тараққиёт учун курашини ёритувчи ўнлаб саҳна асарлари яратилди. Саҳналарда шўролар даврида ҳатто тилга олиш ман этилган Баҳоуддин Нақшбанд, Ҳаким ат-Термизий, Имом ал-Бухорий каби алломалар ҳаётини ёритувчи саҳна асарлари вужудга келиб, давримиз томошабинлари маънавиятини бойитди, тарихга нисбатан қарашларни ўзгартирди.

Айниқса, Амир Темур ва темурийлар ҳақида яратилган 20 га яқин саҳна асарлари маънавий ва маданий ҳаётимизда катта воқеа бўлди. Ўзбекистонда ўтказилган «Шарқ ва Ғарб» театр санъати фестивали, «Хумо» халқаро ёшлар театрлари фестивали, «Наврӯз», «Андижон баҳори» республика театр фестиваллари, қўғирчоқ театрлари фестиваллари театр санъатининг янги ижтимоий шароитда ривожланишида муҳим роль ўйнамоқда. Ўзбек театри жамоалари дунёдаги бир қатор мамлакатларда ижодий сафарларда бўлиб, ўзбек театр санъати ютуқларини намойиш этишмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш керакки, театр ҳар бир инсонга ҳаётий сабоқлар берувчи жонли воситадир. Театрдан маданий ҳордиқ чиқариш учунгина эмас, ундаги намойиш этиладиган спектаклларни томоша қилиб, инсон жамиятдаги воқеликларни, кечинмаларни теран англаши мумкин. Шиддат билан тараққий этаётган техника ва инновациялар замонида исталган кино, сериал ёки спектаклни ижтимоий тармоқлар орқали топиб томоша қилиш мумкинdir. Аммо театрга бориб, саҳна асари рухини, унда мужассам ғоялар нафасини ҳис қилиб жонли томоша қилишнинг завқи ҳам, маънавий фойдаси ҳам ўзгача. Зеро, театр – тарбия маскани, маънавият ўчоғидир.

## ТЕАТР ҲАҚИДА ҚИЗИҚАРЛИ ФАКТЛАР

Театрларнинг рамзи ҳисобланган махсус ниқоб шахсни яшириш учун мўлжалланган. Қадим замонлардан бери ниқоблар театр анъаналарида муҳим роль ўйнаган. Улардан фойдаланиш ҳозирги кунгача давом этди.

1961 йилда УНЕССО қошидаги Халқаро театр институтининг ИХ Конгресси делегатлари ташабbusи билан 27 март – Халқаро театр куни деб эълон қилинган.

Австрия дунёдаги энг кичик театри билан машҳур. У оддийгина «Кремль ҳовлиси» деб аталади. Унинг саҳна ўлчамлари 1,3 квадрат метрга тенг. Спектаклга фақат саккиз киши ташриф буориши мумкин, холос. Айтиш жоизки, у Гиннеснинг рекордлар китобига киритилган. Дунёдаги энг катта театр эса «Сувдаги марварид» деб номланади. У 2007 йили Пекинда қурилган.

**Аброр ПОЁНОВ,  
ўз мухбиримиз.**